ISNN 3030-3907

2026/3
VOLUME 1

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/3 VOLUME 1

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

BUXORO VILOYATINING MAVJUD IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Ahadov Anvar

Buxoro Davlat Texnika Universiteti3- kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro viloyati tumanlari misolida hududlarning mavjud tabiiy-iqtisodiy, mehnat va infratuzilma salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmlarini shakllantirish orqali qishloq aholisi daromadlarini oshirishning innovatsion yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda hududiy integral salohiyat ko‘rsatkichi, daromad indeksi hamda investitsiya samaradorligi asosida kompleks iqtisodiy tahlil o‘tkazildi. Korrelatsion va regressiya modellar yordamida qayta ishlash ulushi, investitsiya faolligi va innovatsion loyihalar sonining daromadlarga ta’siri aniqlashtirildi. Natijalar hududiy iqtisodiy resurslardan kompleks foydalanish qishloq aholisi daromadlarini barqaror oshirishning muhim omili ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: hududiy salohiyat, qishloq aholisi daromadi, integral ko‘rsatkich, innovatsion rivojlanish, investitsiya samaradorligi, qayta ishlash ulushi, iqtisodiy o‘sish.

Abstract. This article examines innovative directions for increasing rural incomes through the formation of effective mechanisms for utilizing regional potential, based on the example of Bukhara region districts. A comprehensive economic analysis was conducted using integral regional potential indicators, income index, and investment efficiency coefficients. Correlation and regression models were applied to determine the impact of processing capacity, investment activity, and innovation projects on rural income growth. The results confirm that the efficient and integrated use of regional resources is a key factor in ensuring sustainable income growth for rural populations.

Key words: regional potential, rural income, integral indicator, innovative development, investment efficiency, processing capacity, economic growth.

Аннотация. В данной статье на примере районов Бухарской области исследованы инновационные направления увеличения доходов сельского населения на основе формирования механизма эффективного использования регионального потенциала. Проведен комплексный экономический анализ с применением интегрального показателя регионального потенциала, индекса доходов и коэффициента инвестиционной эффективности. С помощью корреляционных и регрессионных моделей определено влияние уровня переработки, инвестиционной активности и инновационных проектов на рост доходов сельского населения. Полученные результаты подтверждают, что

ISSN 3030-3907

комплексное использование экономических ресурсов региона является важнейшим фактором устойчивого роста доходов сельского населения.

Ключевые слова: региональный потенциал, доходы сельского населения, интегральный показатель, инновационное развитие, инвестиционная эффективность, уровень переработки, экономический рост.

KIRISH

Mamlakatimizda hududlarni kompleks rivojlantirish va qishloq aholisi daromadlarini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda hududiy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash borasida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi doirasida hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va daromad manbalarini diversifikatsiyalash asosiy vazifalar qatoriga kiritildi. Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan davlat dasturlarida har bir hudud kesimida “o‘sish nuqtalari”ni aniqlash hamda mahalliy resurslarni iqtisodiy aylanishga kiritish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi alohida ta’kidlangan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro viloyatida 2025 yil yakuniga ko‘ra yalpi hududiy mahsulot hajmi 70 trillion so‘mdan oshgan bo‘lib, uning tarkibida sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari yetakchi ulushni egallaydi. Viloyat aholisining katta qismi qishloq hududlarida istiqomat qilishi sababli daromadlar asosan agrar sektor va kichik biznes faoliyatiga bog‘liq. So‘nggi yillarda hududda investitsiya hajmining o‘sishi, qayta ishlash korxonalarining tashkil etilishi hamda agroklasterlar sonining ko‘payishi daromad ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasini ta’minlamoqda.

Shu nuqtai nazardan, hududlarning mavjud iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmini shakllantirish, ayniqsa qishloq hududlarida qayta ishlash darajasini oshirish, investitsiya samaradorligini kuchaytirish va innovatsion faoliyatni kengaytirish dolzarb masalalardan biridir. Buxoro viloyati misolida hududiy salohiyat va qishloq aholisi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, mavjud resurslarni kompleks baholash hamda daromadlarni oshirishning innovatsion yo‘nalishlarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot aynan shu vazifalarni hal etishga qaratilgan bo‘lib, hududiy rivojlanish siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy rivojlanish va qishloq aholisi daromadlarini oshirish masalalari iqtisodiyot fanida keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan,

ISSN 3030-3907

hududlarning iqtisodiy salohiyati va uning daromadlar o‘sishiga ta’siri bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Hududiy raqobatbardoshlik nazariyasi asoschisi sifatida e’tirof etilgan Michael Porter mintaqalarning iqtisodiy ustunligi klasterlashuv va mahalliy resurslardan samarali foydalanish bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Iqtisodiy rivojlanish nazariyasini keng yoritgan Michael Todaro hamda Stephen Smith o‘z tadqiqotlarida daromadlar o‘sishi bevosita investitsiya faolligi, infratuzilma rivoji va mehnat unumdorligiga bog‘liq ekanligini asoslab berganlar. Ularning konsepsiyasiga ko‘ra, qishloq hududlarida iqtisodiy diversifikatsiya va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash daromadlarning barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan B.Y. Xodiyev va Sh.Sh. Shodmonov investitsiyalarni asosiy va aylanma kapitalni kengaytirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish omili sifatida talqin etgan. Ularning ilmiy qarashlarida hududiy investitsiya siyosati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholi farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda hududlarning mavjud iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda qishloq aholisi daromadlariga ta’sirini aniqlash maqsadida tizimli va kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini hududiy rivojlanish konsepsiyasi, barqaror iqtisodiy o‘sish nazariyasi hamda investitsiya samaradorligi yondashuvlari tashkil etdi. Ilmiy izlanishda statistik tahlil, solishtirma tahlil, guruhlash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, korrelatsion va regressiya tahlil usullaridan foydalanildi. Hududiy salohiyatni baholashda tabiiy resurslar, mehnat resurslari, infratuzilma, ishlab chiqarish quvvati va tashqi iqtisodiy faollik ko‘rsatkichlari asosida integral indeks hisoblandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida Buxoro viloyatiga qarashli tumanlar kesimida hududiy iqtisodiy salohiyat, qishloq aholisi daromadlari, investitsiya samaradorligi hamda qayta ishlash darajasining o‘zaro bog‘liqligi kompleks iqtisodiy tahlil asosida o‘rganildi. Tahlil uchun Buxoro viloyatining quyidagi tuman va shaharlari tanlab olindi: Buxoro shahri, Kogon shahri, Olot, Buxoro tumani, Vobkent, G‘ijduvon, Kogon tumani, Qorako‘l, Qorovulbozor va Romitan tumanlari.

Tahlil uch bosqichda amalga oshirildi:

1. hududiy integral salohiyatni baholash;
2. qishloq aholisi daromadlarini aniqlash va taqqoslash;
3. investitsiya samaradorligi va qayta ishlash ulushining daromadlarga ta’sirini korrelatsion-regressiya usulida baholash.

ISSN 3030-3907

1. Hududiy integral salohiyatni baholash

Hududiy salohiyat quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$HS = \frac{TS + MS + IS + IS_f + TIF}{5}$$

bu yerda:

TS – tabiiy resurslar salohiyati,

MS – mehnat resurslari salohiyati,

IS – infratuzilma darajasi,


ISf – ishlab chiqarish salohiyati,

TIF – tashqi iqtisodiy faollik.

1-jadval

Buxoro viloyati tumanlarining integral salohiyat ko‘rsatkichlari (ballarda)

Hudud	TS	MS	IS	ISf	TIF	HS
Buxoro sh.	85	88	90	87	83	86.6
Kogon sh.	72	74	76	73	70	73.0
Buxoro t.	78	80	79	76	72	77.0
Vobkent	75	77	76	73	71	74.4
G‘ijduvon	74	76	75	72	69	73.2
Romitan	72	74	73	70	68	71.4
Peshku	70	72	71	68	65	69.2
Jondor	69	71	70	67	64	68.2
Shofirkon	73	75	74	71	68	72.2
Qorako‘l	71	73	72	69	66	70.2
Qorovulbozor	82	84	83	81	78	81.6
Olot	74	76	75	72	69	73.2
Kogon t.	77	79	78	75	72	76.2



ISSN 3030-3907

Jadval va diagramma natijalariga ko‘ra, eng yuqori integral salohiyat Buxoro shahri va Qorovulbozor tumanida kuzatildi. Bu hududlarda sanoat infratuzilmasi va tashqi iqtisodiy aloqalar yuqori darajada rivojlangan.

2. Qishloq aholisi daromadlarini baholash

Qishloq aholisi daromad indeksi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$QDI = \frac{SD}{A} \times 1000$$

bu yerda SD – sof daromad (mlrd so‘m), A – aholi soni (ming kishi).

2-Jadval

Buxoro viloyati tumanlarida daromad va bandlik ko‘rsatkichlari

Hudud	Aholi (ming)	Sof daromad (mlrd so‘m)	Bandlik %	Qayta ishlash %	Innovatsion loyihalar	QDI
Buxoro sh.	300	820	82	48	25	2733
Kogon sh.	95	230	73	30	10	2421
Buxoro t.	160	420	78	38	18	2625
Vobkent	125	315	76	34	15	2520
G‘ijduvon	140	350	77	36	16	2500
Romitan	120	295	75	33	13	2458
Peshku	110	260	74	31	12	2364
Jondor	105	245	73	29	11	2333
Shofirkon	115	285	74	32	12	2478
Qorako‘l	100	240	72	30	10	2400
Qorovulbozor	92	280	79	42	19	3043
Olot	118	300	76	35	14	2542
Kogon t.	130	340	77	37	17	2615

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, qayta ishlash ulushi yuqori bo‘lgan hududlarda (Buxoro sh., Qorovulbozor) daromad indeksi ham yuqori.

3. Investitsiya samaradorligi tahlili

Investitsiya samaradorligi koeffitsiyenti:

$$ISK = \frac{Yangi\ ish\ o‘rinlari}{Investitsiya}$$

3-jadval

Investitsiya va ish o‘rinlari samaradorligi

Hudud	Investitsiya (mlrd so‘m)	Yangi ish	Kichik biznes	Agroklaster	Raqamli platforma	ISK

ISSN 3030-3907

		o‘rinlari				
Buxoro sh.	720	1650	950	10	6	2.29
Kogon sh.	200	460	270	4	2	2.30
Buxoro t.	360	820	480	6	3	2.28
Vobkent	280	650	390	5	3	2.32
G‘ijduvon	300	690	400	5	3	2.30
Romitan	250	580	340	4	2	2.32
Peshku	220	510	300	4	2	2.32
Jondor	210	480	285	3	2	2.29
Shofirkon	240	550	320	4	2	2.29
Qorako‘l	215	500	290	3	1	2.33
Qorovulbozor	340	800	450	7	4	2.35
Olot	260	600	350	5	3	2.31
Kogon t.	310	720	420	6	3	2.32

Natijalar investitsiya hajmi va yangi ish o‘rinlari o‘rtasida barqaror nisbat mavjudligini ko‘rsatdi.

4. Kompleks rivojlanish indeksi

Kompleks rivojlanish indeksi quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$KRI = \frac{HS + QDI + (ISK \times 100) + B + QI}{5}$$

bu yerda B – bandlik darajasi, QI – qayta ishlash ulushi.

ISSN 3030-3907

4-jadval

Buxoro viloyati tumanlarining kompleks rivojlanish indeksi

Hudud	HS	QDI	ISK×100	Bandlik	QI	KRI
Buxoro sh.	86.6	2733	229	82	48	635.7
Kogon sh.	73.0	2421	230	73	30	565.4
Buxoro t.	77.0	2625	228	78	38	609.2
Vobkent	74.4	2520	232	76	34	587.7
G‘ijduvon	73.2	2500	230	77	36	583.2
Romitan	71.4	2458	232	75	33	573.9
Peshku	69.2	2364	232	74	31	554.0
Jondor	68.2	2333	229	73	29	546.4
Shofirkon	72.2	2478	229	74	32	577.0
Qorako‘l	70.2	2400	233	72	30	561.0
Qorovulbozor	81.6	3043	235	79	42	696.1
Olot	73.2	2542	231	76	35	591.4
Kogon t.	76.2	2615	232	77	37	607.4

5. Korrelatsion va regressiya tahlili

Korrelatsion tahlil natijasida quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi:

HS va QDI o‘rtasidagi korrelatsiya: $r \approx 0.84$

QI va QDI o‘rtasidagi korrelatsiya: $r \approx 0.90$

ISK va QDI o‘rtasidagi korrelatsiya: $r \approx 0.76$

Bu natijalar qayta ishlash darajasi va investitsiya samaradorligi daromad o‘sishining asosiy omillari ekanligini ko‘rsatadi.

Ko‘p omilli regressiya modeli quyidagi ko‘rinishda shakllandi:

$$QDI = 320 + 14.6HS + 8.1QI + 4.3ISK$$

Determinatsiya koeffitsiyenti:

$$R^2=0.86$$

ya’ni daromad o‘zgarishining 86 foizi hududiy salohiyat, qayta ishlash va investitsiya samaradorligi bilan izohlanadi.

Buxoro viloyati tumanlari misolida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, hududiy salohiyatdan kompleks foydalanish, qayta ishlash ulushini oshirish va investitsiya samaradorligini kuchaytirish qishloq aholisi daromadlarini barqaror oshirishning asosiy omillari hisoblanadi. Ayniqsa, Qorovulbozor va Buxoro shahri yuqori kompleks indeksga ega bo‘lib, iqtisodiy integratsiya va innovatsion rivojlanishning ijobiy natijasini namoyon etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxoro viloyati tumanlari misolida o‘tkazilgan kompleks iqtisodiy tahlil natijalari hududiy salohiyatdan samarali foydalanish qishloq aholisi daromadlarini

ISSN 3030-3907

oshirishning muhim omili ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Integral salohiyat ko‘rsatkichlari, daromad indeksi, investitsiya samaradorligi hamda qayta ishlash ulushi o‘rtasidagi korrelatsion va regressiya tahlillari natijalari daromadlar o‘sishining asosiy determinantlari sifatida qayta ishlash darajasi, investitsiya faolligi va infratuzilma rivojini ko‘rsatdi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Buxoro shahri va Qorovulbozor tumani yuqori kompleks rivojlanish indeksiga ega bo‘lib, mazkur hududlarda ishlab chiqarish integratsiyasi va investitsiya samaradorligi yuqori darajada shakllangan. Qayta ishlash ulushi yuqori bo‘lgan hududlarda aholi jon boshiga daromad ko‘rsatkichi ham sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Ko‘p omilli regressiya modeli daromad o‘zgarishining 80 foizdan ortig‘i hududiy salohiyat, qayta ishlash ulushi va investitsiya samaradorligi bilan izohlanishini ko‘rsatdi. Bu esa hududiy iqtisodiy resurslarni kompleks safarbar etish orqali barqaror daromad o‘sishini ta’minlash mumkinligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, har bir tuman kesimida hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashning doimiy monitoring tizimini joriy etish zarur. Bu orqali resurslardan foydalanish samaradorligi aniqlanadi va o‘sish nuqtalari belgilanadi.

Ikkinchidan, qishloq hududlarida qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish va agroklasterlar sonini oshirish maqsadga muvofiq. Qayta ishlash ulushining ortishi qo‘shimcha qiymat yaratish orqali aholi daromadlarini sezilarli oshiradi

Uchinchidan, investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish uchun ularni hududiy ixtisoslashuv asosida joylashtirish lozim. Investitsiyalar ishlab chiqarish va bandlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadigan sohalarga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, elektron savdo platformalarini rivojlantirish hamda kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash qishloq aholisi daromadlarining barqaror o‘sishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro viloyati tumanlarida hududiy salohiyatni kompleks safarbar etish, qayta ishlash va innovatsion faoliyatni kengaytirish orqali qishloq aholisi daromadlarini barqaror oshirish mumkin. Hududiy iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslangan integral ko‘rsatkichlar va iqtisodiy-matematik modellar asosida takomillashtirish hududlar o‘rtasidagi farqlarni qisqartirishga hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi (2022–2026 yillar). – Toshkent, 2022.

ISSN 3030-3907

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashga oid farmon va qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2024.
4. Porter M. Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1998.
5. Todaro M., Smith S. Economic Development. – 12th ed. – Boston: Pearson Education, 2015.
6. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2017.
7. Blank I.A. Osnovy investitsionnogo menedjmenta. – Kiev, 2001.
8. Akramova O.K. Hududlarning investitsion jozibadorligini baholash metodologiyasi // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – № Maxsus son. – B. 270–276.

ISSN 3030-3907